

Hujjat haqiqiyiligini mobil qurilma yordamida QR- kodni skaner qilish orqali tekshirish mumkin

01-16-521-son
31.12.2025-yil

-“Tasdiqlayman”

O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri



K.Sharipov

2025-yil “30”-dekabr

**Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2026-yil 1-yarim yillik
ISH REJASI**

T/r	Ustuvor vazifalar. O‘rganiladigan masalalar mavzusi.	Ijro muddati	Mas’ullar:
1. “O‘zbekiston-2030” strategiyasi va uni amalga oshirishga oid davlat dasturidan kelib chiqadigan ustuvor vazifalar			
1.	2026/2027-o‘quv yili qabuli uchun respublika oliy ta’lim muassasalarining ta’lim yo‘nalishlari ro‘yxati va ularga mos test sinovi (kasbiy (ijodiy) imtihon) topshiriladigan fanlar majmuasi loyihasini ishlab chiqish va tasdiqlash.	2026-yil yanvar	Oliy ta’lim tashkilotlari departamenti / (A.Mamanazarov)
2.	Orol dengizining qurigan tubida uchraydigan muammolarning ilmiy yechimiga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish, olim va mutaxassislarni jalb qilgan holda ilmiy asoslangan agro texnologiyalarni ishlab chiqish maqsadida hududda Ilmiy tajriba stansiyasini ishga tushirish.	2026-yil yanvar	Innovatsion rivojlanish agentligi / (A.Norov)
3.	Respublika oliy ta’lim, ilmiy tashkilotlarida ilmiy -tadqiqot, innovatsion faoliyatni yanada rivojlantirish maqsadida, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Ilm-fan va innovatsiyalar kengashida fundamental, amaliy va innovatsion loyihalarni muhokamadan o‘tkazish, 2026-2029-	2026-yil fevral	Ilm-fan, innovatsion faoliyatni rivojlantirish boshqarmasi / (A.Daminov)

T/r	Ustuvor vazifalar. O'rganiladigan masalalar mavzusi.	Ijro muddati	Mas'ullar:
	yillarga mo'ljallangan loyihalarni moliyalashtirish choralarini ko'rish.		
4.	Orol madaniyat sammitini yuqori saviyada o'tkazish, bunda Sammit doirasidagi ilmiy tadqiqot loyihalari va tashabbuslarni belgilash hamda ularning ahamiyatini baholash, tashabbuslar va qo'shma ilmiy tadqiqot loyihalarini amalga oshirishga ko'maklashish, loyihalarni amalga oshirish uchun xalqaro ilmiy tashkilotlar va ekspertlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish choralarini ko'rish.	2026-yil mart	Ilm-fan, innovatsion faoliyatni rivojlantirish boshqarmasi / (A.Daminov)
5.	Texnikum o'quvchilari o'rtasida 10 ta dolzarb kasb bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sovrini uchun "Kasbiy mahorat milliy tanlovi" ni o'tkazish.	2026-yil may	Kasbiy ta'lim agentligi / (A.Xusanov)
6.	Kasbiy ta'lim tashkilotlarida malaka toifasiga ega bo'lgan pedagog kadrlar ulushini oshirish.	2026-yil may	Kasbiy ta'lim agentligi / (A.Xusanov)
7.	Kasbiy ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifatini oshirish va moddiy-texnik bazani takomillashtirish bo'yicha ishlarni amalga oshirish.	2026-yil iyun	Kasbiy ta'lim agentligi / (A.Xusanov)
8.	Oliy ta'lim tashkilotlari moddiy-texnika bazasi, professor-o'qituvchilar tarkibi va o'quv-metodik ta'minotdan kelib chiqib, 2026/2027-o'quv yili uchun shakllantirilgan qabul parametrlari bo'yicha takliflarni tahlil qilish, umumlashtirish hamda ularni O'zbekiston Respublikasi ta'lim tashkilotlariga qabul qilish bo'yicha davlat komissiyasiga kiritish.	2026-yil iyun	Oliy ta'lim tashkilotlari departamenti / (A.Mamanazarov)

T/r	Ustuvor vazifalar. O'rganiladigan masalalar mavzusi.	Ijro muddati	Mas'ullar:
9.	Mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan axborot texnologiyalari va sun'iy intellekt sohasi ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari uchun oliy ta'lim tashkilotlariga ajratilgan davlat granti kvotalarini 35 foizga oshirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi ta'lim tashkilotlariga qabul qilish bo'yicha davlat komissiyasiga taklif kiritish.	2026-yil iyun	Oliy ta'lim tashkilotlari departamenti / (A.Mamanazarov)
10.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” 2021-yil 10-fevraldagi PF-6166-son Farmonida belgilangan vazifalarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash.	2026-yil 1-yarim yillik	Ijro intizomi va nazorat bo'limi / (A.Yakubov)
11.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ““Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” 2021-yil 31-maydagi PQ-5132-son qarorida belgilangan ustuvor vazifalarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash.	2026-yil 1-yarim yillik	Ijro intizomi va nazorat bo'limi / (A.Yakubov)
12.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat organlari va tashkilotlarda ijro intizomini yanada mustahkamlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida” gi 2025-yil 25-iyuldagi	2026-yil 1-yarim yillik	Ijro intizomi va nazorat bo'limi / (A.Yakubov)

T/r	Ustuvor vazifalar. O'rganiladigan masalalar mavzusi.	Ijro muddati	Mas'ullar:
	PF-117-son qarorida belgilangan ustuvor vazifalarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash.		
13.	Malaka oshirish jarayonida eng yaxshi natija ko'rsatgan 50 nafar pedagog xodimlarning malakasini oshirish uchun xorijga yuborish.	2026-yil 1-yarim yillik	Kasbiy ta'lim agentligi / (A.Xusanov)
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining yaqin muddatga va uzoq istiqbolga mo'ljallangan harakat dasturini amalga oshirishga oid ustuvor vazifalar			
1.	Alisher Navoiy merosini o'rganish ishlarini yanada yuksak bosqichga ko'tarish maqsadida, tizimli asosda ilmiy izlanishlar olib borish va ularning natijalarini e'lon qilish. Bunda, ilmiy-tadqiqot ishlariga davlat buyurtmasi doirasida maqsadli ilmiy-tadqiqot loyihalarini belgilangan tartibda shakllantirish.	2026-yil fevral	Ilm-fan, innovatsion faoliyatni rivojlantirish boshqarmasi / (A.Daminov)
2.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ilg'or kasbiy mahorat texnikumlari faoliyatini tashkil etish to'g'risida" qarori loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2026-yil mart	Kasbiy ta'lim agentligi / (A.Xusanov)
3.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Texnikumlarda dual ta'lim shaklida ta'lim olayotgan o'quvchilarga stipendiya to'lash hamda dual ta'limda o'qigan davrini mehnat stajiga hisoblash tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori loyihasini ishlab chiqish.	2026-yil mart	Kasbiy ta'lim agentligi / (A.Xusanov)
4.	O'zbekiston-Vengriya oliy ta'lim muassasalari rektorlari uchinchi forumini O'zbekiston Respublikasida o'tkazish.	2026-yil mart	Xalqaro hamkorlik va reytinglar boshqarmasi / (A.Xusanov)

T/r	Ustuvor vazifalar. O'rganiladigan masalalar mavzusi.	Ijro muddati	Mas'ullar:
			(G'.Yoziyev)
5.	“Oliy ta’lim to’g’risida” Nizomni Adliya vazirligidan ro‘yxatdan o‘tkazish.	2026-yil aprel	Oliy ta’lim tashkilotlari departamenti / (A.Mamanazarov)
6.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jizzax politexnika instituti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori loyihasini ishlab chiqish.	2026-yil aprel	Oliy ta’lim tashkilotlari departamenti / (A.Mamanazarov)
7.	O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi: 2025/2026-o‘quv yili yakunida tajriba-sinov tariqasida maktablarda tashkil etilgan pedagogik sinflar faoliyati natijadorligi bo‘yicha tahliliy ma’lumotlar asosida takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2026-yil 25-may	Kadrlar malakasini oshirish, ekologik diplomatiya va akademik litseylar faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘limi / (O. Yuldashev)
8.	Oliy ta’lim tizimida 20,0 mln dollarlik xorijiy investitsiyalarni o‘zlashtirish.	2026-yil iyun	Xorijiy investitsiyalar va grantlar bilan ishlash bo‘limi / (Z.Jo‘rayev)
9.	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti sovrini uchun “Yangi O‘zbekiston bunyodkorlari” kasbiy mahorat milliy tanlovini tashkil etish to‘g‘risida” qaror loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2026-yil 1-yarim yillik	Kasbiy ta’lim agentligi / (A.Xusanov)

T/r	Ustuvor vazifalar. O'rganiladigan masalalar mavzusi.	Ijro muddati	Mas'ullar:
10.	O'zbekiston va Germaniya o'rtasida kasb-hunar ta'limi sohasida hamkorlikni mustahkamlash, dual ta'lim tashabbuslarini kengaytirish, pedagoglar malakasini oshirish, texnikumlarda nemis standartlari asosida Germaniya mehnat bozoriga o'rta bo'g'in kadrlarini tayyorlash maqsadida O'zbekistonning Germaniyadagi elchixonasida "O'zbekiston – Germaniya kasbiy ta'lim" Forumini tashkil etish.	2026-yil 1-chorak	Kasbiy ta'lim agentligi / (A.Xusanov)
11.	Kasbiy ta'lim tashkilotlarining 180 nafar biznes asoslari fani o'qituvchilarini Germaniya tajribasi asosida tadbirkorlik ko'nikmalariga o'qitish.	2026 yil 1-yarim yillik	Kasbiy ta'lim agentligi / (A.Xusanov)
12.	Kasbiy ta'lim tashkilotlari, ish beruvchilar, vazirlik va idoralarning 20 nafar mutaxassislarini dual ta'lim rivojlangan davlatlarga stajirovkaga yuborish bo'yicha hamkorlik ishlarini tashkil qilish.	2026-yil 1-yarim yillik	Kasbiy ta'lim agentligi / (A.Xusanov)
13	Xalqaro va qo'shma ta'lim dasturlarini joriy qilinadigan texnikumlar hamda kasb va mutaxassisliklarni belgilash.	2026-yil 2-chorak	Kasbiy ta'lim agentligi / (A.Xusanov)
14.	Kasbiy ta'lim tashkilotlarining 5,5 ming nafar rahbar va pedagog kadrlarini malakasini oshirish	2026-yil 2-chorak	Kasbiy ta'lim agentligi / (A.Xusanov)
15.	Vazirlik tizim tashkilotlarida budjet va budjetdan tashqari mablag'larning to'g'ri shakllantirilishi hamda maqsadli sarflanishini ta'minlash maqsadida 2026-yilda rejali moliyaviy nazorat tartibidagi profilaktika tadbirlarini o'tkazish.	2026-yil 1-yarim yillik	Ichki audit boshqarmasi / (B.Turabov)

T/r	Ustuvor vazifalar. O'rganiladigan masalalar mavzusi.	Ijro muddati	Mas'ullar:
16.	O'zbekiston-Polsha uchinchi rektorlar forumini o'tkazish.	2026-yil 1-yarim yillik	Xalqaro hamkorlik va reytinglar boshqarmasi / (G'.Yoziyev)
17.	Oliy ta'lim muassasalari talabalarini “Talabalar ligasi” , “Talaba-yugur” sport musobaqalari bilan qamrab olish darajasini oshirish.	2026-yil 1-yarim yillik	Yoshlar siyosati va ma'naviy-tarbiyaviy ishlar boshqarmasi / (N.Kasimov)
18	“Giyohvandlikka yo‘q deymiz!” shiori ostida tarbiyaviy-profilaktik tadbirlarni o'tkazish.	2026-yil 1-yarim yillik	Yoshlar siyosati va ma'naviy-tarbiyaviy ishlar boshqarmasi / (N.Kasimov)
3. O'zbekiston Respublikasining qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari, farmoyishlari, bayonlari va Hukumat qarorlari, farmoyishlari, bayonlari bilan yuklatilgan vazifalar ijrosini maqsadli o'rganish			
1.	Samarqand davlat universitetida professor-o'qituvchilarni tanlashning samarali tizimini joriy etish va ularning kasbiy mahoratini oshirish maqsadida xorijiy mamlakatlarga stajirovkaga yuborish.	2026-yil iyun	Kadrlar malakasini oshirish, ekologik diplomatiya va akademik litseylar faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi / (O.Yuldashev)
2.	Andijon davlat texnika institutining 2 ta ta'lim yo'nalishi bo'yicha xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda ta'lim dasturlarini xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazish bo'yicha shartnomalar tuzishni tashkil qilish.	2026-yil 25-yanvar	Kadrlar malakasini oshirish, ekologik diplomatiya va akademik litseylar faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi / (O.Yuldashev)
3.	“Yangi O'zbekiston” universiteti bazasida “Sun'iy intellekt klasteri”ni tashkil etish maqsadida zarur uskuna va jihozlarni xarid qilish.	2026-yil yanvar	Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo'limi bosh hisobchisi

T/r	Ustuvor vazifalar. O'rganiladigan masalalar mavzusi.	Ijro muddati	Mas'ullar:
	<i>(PF-189 22.10.2025 2-ilova 9.2-bandi)</i>		/ (K.Artikov)
4.	Kasbiy ta'limni rivojlantirish jamg'armasi to'g'risidagi nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish. <i>(PQ-316 23.10.2025 4-ilova 4-band)</i>	2026-yil yanvar	Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo'limi bosh hisobchisi / (K.Artikov)
5.	Umumta'lim fanlaridan milliy sertifikat imtihonlariga ro'yxatdan o'tish jarayonida YAIDXP orqali 16 yoshgacha bo'lgan talabgorlar uchun ota-onalari yordamida ushbu xizmatdan foydalanish imkoniyatini yaratish.	2026-yil yanvar	Bilim va malakalarni baholash agentligi / (M.Karimov)
6.	“TECHNOWAYS” texnologik rivojlanish marafonini tashkil etish. Texnika yo'nalishidagi oliygohlar talabalarini jalb etgan holda ularning texnologik bilimlari va loyihalarini rivojlantirish, eng istiqbolli loyihalarni saralash maqsadida o'tkazish.	2026-yil 19-20-fevral	Yoshlar akademiyasi faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi / (A. Sobirxonov)
7.	Olmaliq davlat texnika instituti bilan hamkor tashkilot va korxonalarda kadrlar tayyorlovchi mutaxassislik kafedralari filiallarini tashkil etish hamda mutaxassislik kafedralarining filiallarida mashg'ulotlar olib borgan hamda malakaviy amaliyot ishlariga rahbarlik va maslahatchilik qilgan xodimlarga oliygoh tomonidan soatbay ish haqi to'lanishini o'rganish. <i>(PQ-279 08.09.2025 3-ilova 6.2-bandi)</i>	2026-yil fevral	Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo'limi bosh hisobchisi / (K.Artikov)

T/r	Ustuvor vazifalar. O'rganiladigan masalalar mavzusi.	Ijro muddati	Mas'ullar:
8.	“Eng yaxshi ixtiro”, “Eng yaxshi foydali model”, “Eng yaxshi sanoat namunasi”, “Eng yaxshi EHM uchun dastur va ma'lumotlar bazasi” hamda “Eng yaxshi seleksiya yutug'i” nominatsiyalari bo'yicha respublika tanlovini o'tkazish tartibini ishlab chiqish.	2026-yil 25-fevral	Innovatsion rivojlanish agentligi / (A.Norov)
9.	Davlat oliy ta'lim muassasalarining ijarada yashayotgan talabalariga oylik ijara to'lovining bir qismini qaytarish bilan bog'liq davlat xizmatini Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida ishga tushirish.	2026-yil fevral	Raqamlashtirish va sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish boshqarmasi / (N.Ochilov)
10.	Oliy ta'lim tashkilotlari talabalari uchun startaplar bo'yicha har yili “Eng yaxshi kreativ g'oya” respublika tanlovini o'tkazish hamda tanlov g'oliblariga oliy ta'lim tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan 300 million so'mgacha grant berish tizimi yo'lga qo'yish.	2026-yil 25-mart	Innovatsion rivojlanish agentligi / (A.Norov)
11.	Aerokosmik texnologiyalardan foydalanishning dolzarb yo'nalishlari bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari uchun tanlovlar e'lon qilish.	2026-yil 25-mart	Innovatsion rivojlanish agentligi / (A.Norov)
12.	Kasbiy ta'limni rivojlantirish instituti huzurida Xalqaro malaka va kasbiy standartlar kengashini tashkil etish.	2026-yil mart	Kasbiy ta'lim agentligi, Kasbiy ta'limni rivojlantirish instituti / (Z.Xudayberdiyev)

T/r	Ustuvor vazifalar. O'rganiladigan masalalar mavzusi.	Ijro muddati	Mas'ullar:
13.	Texnikumlar pedagoglari malakasini oshirishda eng yaxshi natija ko'rsatgan pedagoglarni xorijga yuborish tartibini ishlab chiqish.	2026-yil mart	Kasbiy ta'lim agentligi, Kasbiy ta'limni rivojlantirish instituti / (Z.Xudayberdiyev)
14.	Ilg'or kasbiy mahorat texnikumlarda ishlab chiqarish ta'lim ustalarining malaka oshirish jarayonini tashkil etishning tartibini ishlab chiqish.	2026-yil mart	Kasbiy ta'lim agentligi, Kasbiy ta'limni rivojlantirish instituti / (Z.Xudayberdiyev)
15.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalqaro moda akademiyasini tashkil etish to'g'risida" qaror loyihasini ishlab chiqish.	2026-yil mart	Oliy ta'lim tashkilotlari departamenti / (A.Mamanazarov)
16.	Oliy ta'lim tashkilotlarida qizlar o'rtasida – "To'maris izdoshlari" , yigitlar o'rtasida – "Amir Temur vorislari" harbiy-sport musobaqalarini o'tkazish.	2026-yil mart-may	Yoshlar siyosati va ma'naviy-tarbiyaviy ishlar boshqarmasi / (N.Kasimov)
17.	"Kelajak muhandislari" xalqaro festivalini o'tkazish. Xalqaro festivalda 10 dan ortiq xorijiy davlatlardan hamda respublikadan 150 nafarga yaqin yosh muhandislar, talabalar va startap jamoalar ishtirok etishini ta'minlash.	2026-yil 22-24-aprel	Yoshlar akademiyasi faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi (A. Sobirxonov)
18.	"Shanxay hamkorlik tashkilotining 100 nafar kelajak innovatorlari" xalqaro festivalini o'tkazish. Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlardan 17–30 yosh oralig'idagi 100 nafar eng istiqbolli yosh innovatorlari 3 tur robototexnika, dron, ko'rgazma	2026-yil 22-24-aprel	Yoshlar akademiyasi faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi / (A. Sobirxonov)

T/r	Ustuvor vazifalar. O'rganiladigan masalalar mavzusi.	Ijro muddati	Mas'ullar:
	yo'nalishlarida tanlov va olimpiadalarda ishtirok etishini ta'minlash.		
19.	O'zbek-Fransuz universiteti hamda Fransiya universitetlari konsorsiumi o'rtasida ta'lim xizmatlari bo'yicha bitim imzolash hamda Kelishuv bitimini Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi "Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi" DUK tomonidan ekspertizadan o'tkazish. <i>(PQ-354 26.11.2025 2-ilova 3.2-bandi)</i>	2026-yil aprel	Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo'limi bosh hisobchisi / (K.Artikov)
20.	Xorijiy talabalar sonini 20 mingga yetkazish.	2026-yil may	Oliy ta'lim tashkilotlari departamenti / (A.Mamanazarov)
21.	Andijon davlat texnika institutining 2 ta ta'lim yo'nalishini xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazish maqsadida xorijiy ekspertlar ishtirokida ta'lim dasturlarini xalqaro ta'lim talablariga moslashtirish.	2026-yil 25-may	Kadrlar malakasini oshirish, ekologik diplomatiya va akademik litseylar faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi / (O.Yuldashev)
22.	"Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori"ni Adliya vazirligidan ro'yxatdan o'tkazish.	2026-yil may	Oliy ta'lim tashkilotlari departamenti / (A.Mamanazarov)
23.	Navoiy davlat universitetini o'quv auditoriyalarini talab darajasidagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari bilan jihozlash. <i>(PQ-378 31.10.2024 1-ilova 11.2-bandi)</i>	2026-yil may	Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo'limi bosh hisobchisi / (K.Artikov)
24.	Talaba-yoshlarni ilm-fan cho'qqilarini zabt etish va ona vatani uchun xizmat qilishga ruhlantiradigan,	2026-yil may	Yoshlar siyosati va ma'naviy-tarbiyaviy ishlar boshqarmasi /

T/r	Ustuvor vazifalar. O'rganiladigan masalalar mavzusi.	Ijro muddati	Mas'ullar:
	motivatsiya beradigan, ularni birlashtirish va bir maqsad yo'lida harakat qilishga xizmat qiladigan "O'zbekiston Talabalari madhiyasi" ni yaratish.		(N.Kasimov)
25.	"Mirzo Ulug'bek vorislari" respublika tanlovini tashkil etish. Iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash "Ulug'bek" jamg'armasi bilan hamkorlikda o'tkaziladigan tanlovning 1 bosqichi 208 ta tuman va shaharda, 2 bosqichi 14 ta hududda o'tkazish hamda Respublika bosqichida 280 nafar ishtirokchidan 100 nafar g'oliblarni aniqlash.	2026-yil 19-22-may	Yoshlar akademiyasi faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi / (A.Sobirxonov)
26.	Musiqqa fani o'qituvchilarining bilim darajasini aniqlash imtihonlarini tashkil etish.	2026-yil may	Bilim va malakalarni baholash agentligi / (M.Karimov)
27.	Yoshlarga Collage Board tomonidan o'tkaziladigan xalqaro SAT imtihonini hududlarda ham topshirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish.	2026-yil may	Bilim va malakalarni baholash agentligi / (M.Karimov)
28.	Oliy ta'lim tashkilotlari professor-o'qituvchilarining kasbiy faoliyat natijalarini baholashga qaratilgan portfoliosini HEMIS — Oliy ta'lim jarayonlarini boshqarish axborot tizimi bilan integratsiya qilish.	2026-yil may	Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti / (U.Begimkulov), Raqamli ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi (A.Abdullayev)
29.	O'zbekiston tarixi fani va kasbiy fanlar bo'yicha kasb (mutaxassislik)larning o'quv dasturlaridagi mavzular doirasida test topshiriqlarini hamda	2026-yil may	Kasbiy ta'limni rivojlantirish instituti / (Z.Xudayberdiyev)

T/r	Ustuvor vazifalar. O'rganiladigan masalalar mavzusi.	Ijro muddati	Mas'ullar:
	ko'rgazmali-amaliy imtihonlar shartlari va baholash mezonlarini ishlab chiqish.		
30.	Kasbiy ta'lim tizimida mehnat bozori va ish beruvchilarning talabi asosida qabul shakllantirilgan kasblar doirasida 50 ta dual ta'lim dasturlarini ishlab chiqish.	2026-yil iyun	Kasbiy ta'limni rivojlantirish instituti / (Z.Xudayberdiyev)
31.	"Study in Uzbekistan" loyihasi doirasida xorijiy davlatlarda xorijiy talablarni jalb etish bo'yicha ta'lim ko'rgazmalarini tashkil etish.	2026-yil iyun	Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi / (A.Xoliqov)
32.	Cho'llanishga qarshi suvni tejaydigan va biotexnologiyalarni, ekologik tadqiqotlar, yashil texnologiyalar va barqaror energiya manbalari yo'nalishlarida tizimli tadqiqotlar olib borish uchun xalqaro qo'shma ilmiy loyihalarni yo'lga qo'yish.	2026-yil iyun	Innovatsion rivojlanish agentligi / (A.Norov)
33.	Xodimlarning Virtual akademiyada korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida malakasini oshirib borish.	2026-yil iyun	Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi / (Sh.Yadgarov)
34.	Namangan davlat texnika universiteti professor-o'qituvchilarining kasbiy mahoratini oshirib borish, jumladan, xorijiy oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot tashkilotlarida tajriba oshirishlarini tashkil etish.	2026-yil 25-iyun	Kadrlar malakasini oshirish, ekologik diplomatiya va akademik litseylar faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi / (O.Yuldashev)
35.	"Kelajak muhandislari" respublika ko'rik tanlovini tashkil etish. "Eng yaxshi g'oya" "Eng yaxshi loyiha" "Eng yaxshi ixtiro" yo'nalishlarida talabalar, o'qituvchilar	2026-yil 25-iyun	Yoshlar akademiyasi faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi / (A. Sobirxonov)

T/r	Ustuvor vazifalar. O'rganiladigan masalalar mavzusi.	Ijro muddati	Mas'ullar:
	va amaliyotchi muhandislar o'rtasida o'tkazilib, 9 nafar g'oliblarga Prezident sovg'asi elektromobil topshirish.		
36.	Oliy va kasbiy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining amaliyot o'tash, malaka oshirish hamda ishga joylashtirish jarayonlarini raqamlashtirishga qaratilgan elektron platformani joriy etish.	2026-yil iyun	Raqamlashtirish va sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish boshqarmasi / (N.Ochilov)
37.	Ta'lim sohasiga oid ma'lumotnomalar berish bilan bog'liq davlat xizmatlarini Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida ishga tushirish.	2026-yil fevral-iyun	Raqamlashtirish va sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish boshqarmasi / (N.Ochilov)
38.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-yanvardagi "Oliy ta'lim muassasalari talabalariga to'lanadigan stipendiyalar miqdorlarini belgilash hamda stipendiyalar tayinlash va to'lash tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 59-son qaroriga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish. <i>(PF-231 25.11.2025 2-ilova 32-band)</i>	2026-yil iyun	Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo'limi bosh hisobchisi / (K.Artikov)
39.	Germaniya ilg'or metodikalari asosida biznes asoslari fani o'qituvchilarini malakasini oshirish.	2026-yil mart-iyun	Kasbiy ta'limni rivojlantirish instituti / (Z.Xudayberdiyev)
40.	"Ekologik innovatsiyalar va yashil texnologiyalar" tijoratlashtirishga tayyor innovatsion ishlanmalar va loyihalar tanlovini tashkil etish.	2026-yil 25-iyun	Innovatsion rivojlanish agentligi / (A.Norov)

T/r	Ustuvor vazifalar. O'rganiladigan masalalar mavzusi.	Ijro muddati	Mas'ullar:
41.	Jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarining bilim darajasini aniqlash imtihonlarini tashkil etish.	2026-yil iyun	Bilim va malakalarni baholash agentligi / (M.Karimov)
42	Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida dars beruvchi xorijda malaka oshirgan professor-o'qituvchilar ulushini 65 foizga yetkazish.	2026-yil iyun	Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti / (U.Begimkulov)
43.	Oliy ta'lim tashkilotlari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari o'quv jarayonlariga 200 nafar xorijiy professor-o'qituvchilar va soha mutaxassislarini jalb qilish.	2026-yil iyun	Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti / (U.Begimkulov)
44.	Oliy ta'lim tashkilotlari professor-o'qituvchilarini ta'limda sun'iy intellektdan foydalanishga o'rgatish maqsadida qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari o'quv reja va dasturlarini takomillashtirish.	2026-yil iyun	Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti / (U.Begimkulov)
45.	Akademik litsey va texnikumlar boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlarining namunaviy shtatlarini qayta ko'rib chiqish hamda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazish.	2026-yil 1-yarim yillik	Moliya-iqtisodiyot va infratuzilmani rivojlantirish boshqarmasi boshlig'i / (J.Xalilov)
46.	Texnikum xodimlari mehnatiga haq to'lash tartibini qayta ko'rib chiqish.	2026-yil 1-yarim yillik	Moliya-iqtisodiyot va infratuzilmani rivojlantirish boshqarmasi boshlig'i / (J.Xalilov)
47.	Kambag'al oilalar reyestriga kiritilgan oilalar farzandlarining yashash xarajatlarini Davlat	2026-yil 1-yarim yillik	Moliya-iqtisodiyot va infratuzilmani rivojlantirish boshqarmasi boshlig'i

T/r	Ustuvor vazifalar. O'rganiladigan masalalar mavzusi.	Ijro muddati	Mas'ullar:
	budjetidan ajratiladigan mablag'lar hisobidan qoplab berish ishlarini tashkil qilish.		/ (J.Xalilov)
48.	Davlat oliy ta'lim muassasalarining magistratura bosqichiga to'lov-kontrakt asosida qabul qilingan va ta'lim olayotgan xotin-qizlarga to'lov-kontraktning to'liq summasini O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetidan ajratiladigan mablag'lar hisobidan qoplab berish ishlarini tashkil qilish.	2026-yil 1-yarim yillik	Moliya-iqtisodiyot va infratuzilmani rivojlantirish boshqarmasi boshlig'i / (J.Xalilov)
49.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Buxoro davlat texnika universiteti faoliyatini tashkil etish bo'yicha" 2025-yil 24-yanvardagi PQ-22-son ijrosi yuzasidan ma'lumotlarni tahlil qilib borish.	2026-yil 1-yarim yillik	Yig'ma axborot-tahlil bo'limi / (F.Mo'minov)
50.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Namangan davlat texnika universitetini tashkil etish to'g'risida" 2025-yil 24-yanvardagi PQ-23-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "Namangan davlat texnika universiteti faoliyatini tashkil etish hamda uning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash bo'yicha" "yo'l xaritasi" ijrosi yuzasidan ma'lumotlarni tahlil qilib borish.	2026-yil 1-yarim yillik	Yig'ma axborot-tahlil bo'limi / (F.Mo'minov)
51.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Nukus davlat texnika universitetini tashkil etish to'g'risida" 2025-yil 24-yanvardagi PQ-25-son qarori bilan Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga belgilangan topshiriqlar ijrosi yuzasidan ma'lumotlarni tahlil qilib borish.	2026-yil 1-yarim yillik	Yig'ma axborot-tahlil bo'limi / (F.Mo'minov)
52.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qarshi davlat texnika universitetini tashkil etish to'g'risida"	2026-yil 1-yarim yillik	Yig'ma axborot-tahlil bo'limi /

T/r	Ustuvor vazifalar. O'rganiladigan masalalar mavzusi.	Ijro muddati	Mas'ullar:
	2024-yil 10-dekabrda PQ-428-son qarori ijrosi yuzasidan ma'lumotlarni tahlil qilib borish.		(F.Mo'minov)
53.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Farg'ona viloyatidagi oliy ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2025-yil 24-yanvardagi PQ-26-son qarori bilan Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga belgilangan topshiriqlar ijrosi yuzasidan ma'lumot ma'lumotlar taqdim etish.	2026-yil 1-yarim yillik	Yig'ma axborot-tahlil bo'limi / (F.Mo'minov)
54.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universitetini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 18-iyuldagi PQ-265-son qarori ijrosi yuzasidan ma'lumot ma'lumotlar taqdim etish.	2026-yil 1-yarim yillik	Yig'ma axborot-tahlil bo'limi / (F.Mo'minov)
55.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-iyundagi "Energiya resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-222-son qarorining 5-ilovasi bilan tasdiqlangan chora-tadbirlar rejasi ijrosini ta'minlash.	2026-yil 1-yarim yillik	Energiya samaradorligi va ta'lim-ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish boshqarmasi / (A.Isaqov)
56.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 26-avgustdagi 26/1-2739-son topshirig'i ijrosini ta'minlash maqsadida texnika yo'nalishida kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalarida energiya auditorlar xizmatini tashkil etish.	2026-yil 1-yarim yillik	Energiya samaradorligi va ta'lim-ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish boshqarmasi / (A.Isaqov)

T/r	Ustuvor vazifalar. O'rganiladigan masalalar mavzusi.	Ijro muddati	Mas'ullar:
57.	Yoqilg'i — energiya resurslaridan foydalanish ustidan davlat nazoratini samarali tashkil etish va muvofiqlashtirish bo'yicha Respublika shtabining 2025-yil 25-noyabrdagi 28-sonli majlis bayoni ijrosini ta'minlash maqsadida Respublika hududlarida energiya resurslarini iqtisod qilishni ilmiy texnikaviy asosda o'rganishlar olib borish.	2026-yil 1-yarim yillik	Energiya samaradorligi va ta'lim-ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish boshqarmasi / (A.Isaqov)
58.	Respublikadagi 4 ta oliy ta'lim muassasalarida energiya auditorlar sonini keskin oshirish maqsadida ularni tayyorlash bo'yicha o'quv kurslarini tashkil qilish.	2026-yil 1-yarim yillik	Energiya samaradorligi va ta'lim-ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish boshqarmasi / (A.Isaqov)
59.	“Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida”gi Qonunda belgilangan talablar va mexanizmlarni amaliyotga joriy etish bilan bog'liq masalalarni, xususan, xodimlar uchun o'rnatilgan cheklovlarga so'zsiz rioya etilishi ahvoli va manfaatlar to'qnashuvi holatlariga yo'l qo'ymaslik borasida ko'rilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini tizimli o'rganish ishlarini davom ettirish.	2026-yil 1-yarim yillik	Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi / (Sh.Yadgarov), Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish boshqarmasi / (F.G'aybullayev)
60.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-oktabrdagi “Kasbiy ta'lim tizimida boshqaruv samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-190-son va “Kasbiy ta'lim tizimida islohotlarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-316-son qarori ijrosini Buxoro,	2026-yil 2-chorak	Kasbiy ta'lim agentligi / (A.Xusanov)

T/r	Ustuvor vazifalar. O'rganiladigan masalalar mavzusi.	Ijro muddati	Mas'ullar:
	Jizzax va Farg'ona viloyatlari kasbiy ta'lim muassasalari misolida joylarda o'rganish.		
61.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kasbiy ta'lim tizimida islohotlarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2025-yil 23-oktabrdagi PQ-316-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida texnikumlarning moddiy-texnika bazasining mavjud holatini o'rganish hamda uni o'rganish natijasiga ko'ra jihozlash ishlarini tashkil etish.	2026-yil 2-chorak	Kasbiy ta'lim agentligi / (A.Xusanov)
62.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 25-dekabrda PQ-455-sonli qarorining 7-ilovasiga asosan rivojlantirish dasturlari va budjet xarajatlarini maqsadli indikatorlarining 2026-yildagi ijrosini nazorat qilish va natijalarini baholash.	2026-yil 1-yarim yillik	Ichki audit boshqarmasi / (B.Turabov)
63.	Chexiya va O'zbekiston birinchi oliy ta'lim muassasalari rektorlari forumini Chexiya Respublikasida o'tkazish.	2026-yil 1-yarim yillik	Xalqaro hamkorlik va reytinglar boshqarmasi / (G'.Yoziyev)
4. Ijtimoiy soha, iqtisodiyot tarmoqlari va respublika hududlarida amalga oshirilayotgan islohotlar natijadorligining tahlili			
1.	Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutida oliy ta'lim muassasalarida faoliyat yuritib kelayotgan xotin-qizlar maslahat kengashi raislari uchun malaka oshirish kursini tashkil etish.	2026-yil aprel	Yoshlar siyosati va ma'naviy-tarbiyaviy ishlar boshqarmasi / (N.Kasimov)

T/r	Ustuvor vazifalar. O'rganiladigan masalalar mavzusi.	Ijro muddati	Mas'ullar:
2.	Oliy ta'lim davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va tasdiqlashning maqbul mexanizmini ishlab chiqish.	2026-yil iyun	Oliy ta'lim tashkilotlari departamenti / (A.Mamanazarov)
3.	Nodavlat ta'lim tashkilotlari (o'rta maxsus, kasbiy, oliy hamda oliy ta'limdan keyingi ta'lim)ning o'z faoliyatini yangi litsenziya talablari va shartlari asosida tashkil etganligi bo'yicha monitoring olib borish.	2026-yil 1-yarim yillik	Oliy ta'lim tashkilotlari departamenti / (A.Mamanazarov)
4.	O'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish va ta'lim jarayoniga tatbiq etish hamda Axborot-resurs markazi fondini muntazam yangilab borish. (PQ-23-son, 24.01.2025 1-ilova 5.2-band)	2026-yil 1-yarim yillik	Moliya-iqtisodiyot va infratuzilmani rivojlantirish boshqarmasi boshlig'i / (J.Xalilov)
5.	"Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida bahor mavsumida oliy, o'rta maxsus va kasbiy ta'lim muassasalari tomonidan manzarali, mevali daraxt va buta ko'chatlarini ekish.	2026-yil 1-yarim yillik	Moliya-iqtisodiyot va infratuzilmani rivojlantirish boshqarmasi boshlig'i / (J.Xalilov)
6.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-dekabrda "2025-2027-yillarda O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-454-son qaror ijrosi yuzasidan oliy ta'lim muassasalari obyektlari qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash ishlari bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan oylik monitoring olib borish.	2026-yil 1-yarim yillik	Moliya-iqtisodiyot va infratuzilmani rivojlantirish boshqarmasi boshlig'i / (J.Xalilov)
7.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro	2026-yil 1-yarim yillik	Ijro intizomi va nazorat bo'limi / (A.Yakubov)

T/r	Ustuvor vazifalar. O'rganiladigan masalalar mavzusi.	Ijro muddati	Mas'ullar:
	etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2021-yil 10-fevraldagi 6166-son Farmoni ijrosini ta'minlash.		
8.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari, farmoyishlari va topshiriqlarining mas'ul ijrochilar tomonidan topshiriqlar ijrosini ta'minlash holatining "Ijro.gov.uz" tizimidan tahlil qilish.	2026-yil 1-yarim yillik	Ijro intizomi va nazorat bo'limi / (A.Yakubov)